



DOSTONLARDA DIALEKTALIZM MASALALARINI O'QITISH

Karimboyeva Shohida Baxtiyor qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili kafedra o'qituvchisi

Sa'dullayeva Gulsora

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Yangiboyeva Iroda

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada Alpomish dostoni haqida nazariy ma'lumotlar va til jihatidan tahliliy misollar berilgan. Ushbu dostonida ishlatilgan dialektizmga oid so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tilidagi muqobillari berilgan. Alpomish dostonida o'zbek millatiga xos eng yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar, ayniqsa millatdoshlarimizdagi so'zga chechanlik, mohirlik bilan so'z qo'llash san'ati, topqirlik qobilyati kabilar misollarda ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: dialektizm, fonetik, leksik-fonetik, ma'naviy, qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik.

“Alpomish” – dostonida o'zbek xalqining azal-azaldan imon-e'tiqod, ornomus va yurt birligi yo'lida o'zini ayamasligi yorqin aks ettirilgan.¹ Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” asarida bu dostonga: “Alpomish – o'zbekning o'zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlaridan avlodlariga o'tkazib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Alpomish dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi”, - deb ta'rif bergan. Shuning uchun ham 1999- yilda ushbu doston yaratilganining ming yilligi mamlakatimizda keng bayram qilindi.

Bu dostonni o'zbekning buyuk baxshisi Fozil yo'ldosh o'g'li aytgan. “Alpomish” dostonining boshqa baxshilar tomonidan aytilgan qirqdan ortiq nusxasini juda ko'p olimlar yozib olishgan. Lekin ularning birortasi voqealarning qiziqarliligi, ifodaning ta'sirchanligi, tasvirning izchilligi, o'zbek xalqiga xos belgilarni aks ettira olish qudrati bilan Fozil yo'ldosh o'g'li aytgan nusxaga teng kelolmaydi. Fozil Yo'ldosh o'g'li ulkan iste'dodi tufayli o'zbek xalq dostonchiligini yangi bosqichga ko'targan. Fozil yo'ldosh qirqdan oshiq xalq dostonlarini to'la yod bilgan va betakror iste'dodi bilan aytgan dostonlarining badiiy jihatdan boshqalarnikidan mukammal

¹ O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning <<Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch>> asari. <<Ma'naviyat>> nashriyoti. Toshkent-2008.



bo'lishiga erishgan. "Alpomish" dostoni nafaqat baxshining ijodida, balki o'zbek xalq dostonchiligida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu dostonda o'zbek xalqiga xos eng ezgu sifatlar haqqoniy hamda ta'sirli aks ettirilgan. Ushbu durdona meros Qadimiy turkiy tilda yozilgan dostonlar biridir, shu jihatdan ham ushbu asar tilshunoslar uchun ham juda qadrli, til tarixini tadqiq qilishda katta ahamiyatga ega madaniy boylikdir. Bu dostonda Alpomish laqabli Hakimbek degan qo'rqmas pahlavonning amakisi (qaynotasi) bilan sevgilisi Barchinoyni yovuz Qalmoqlar yurtidan qutqarib kelishi va murod-maqсадiga yetishi juda ishonarli tarzda yoritib berilgan. Alpomish Qalmoqlar yurtida ko'p qiyinchiliklarga, hiyla-nayranglarga duch kelib, ularni mardona yengib o'tadi. O'zining mardligi, haqqoniyligi, tantiligi tufayli Qalmoqlar yurtida ham, o'z vatanida ham adolatni qaror toptiradi. Ushbu dostonda o'zbeklarning o'ziga xos fe'l-atvori, udumlari va urf-odatlarini ochib berilgan dostonlardan biridir. Hamda dostonni til jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, juda ko'plab so'zlarning tarixiy shaklini, o'zgacha ko'rinishlarini va albatta, dialektalizmga oid so'zlarni ko'rishimiz mumkin.

"Ana endi katta-kichik, eli-elati, mulla-xo'jasi, qavmi-qarindoshlari, o'qishib yurishgan sheriklari, mana, bizning sherigimiz ketib qoladiganga o'xshaydi, deyishib xapa bo'lishib, qaboqlari uyulishib, dimoqlari pitishibdi. Boybo'rining ko'ngli uchun jiyilishib, qavmi-qarindoshlarimizni ko'rib qolayik, oq fotiha berayik, deb xotinlar keldi. Hammasi jiyilishib keddi. Polvonning enasi Kuntug'mish boybicha: "Ota bilan ena farzandga Hazrati Xizr Ilyosga duo qilmoqdan bo'lak gap yo'q. Vo darig'", - deb yoppasi polvonni Boychiborga mingizishib, hamma qora ko'zlar girdini olib turishib, bir-birlariga qarashib turgan vaqtlarida mulla Hakim xalq- xaloyiqqa, qavmi-qarindoshlariga qarab uzangiga oyog'ini tiradi. Asardan olingan ushbu matn parchasida ham quyidagicha misollardagi so'zlar davr talabiga ko'ra ayrim fonetik o'zgarishlariga uchragan va ushbu holatda aks etgan:

Xapa-xafa

Qaboqlari-qavoqlari

Pitishibdi-bitishibdi

Qolayik-qolaylik

Berayik-beraylik,

Jiyilishibdi-yig'ilishib

Keddi-ketdi

Mingizishib- mindirishib

"Shunda Kayqubodning yuragi ishib keddi. Alpomish yeznasiga qarab:- Assalomu alaykum, yezna,- dedi. Alpomish aydi: -Qaynim, nimang bor? Kayqubod



aydi: -Bor boricha, qirq qo'yim bor, bosh otiga beraman degan bir olgina toyim bor, ikki qorin, bir jumu moyim bor, xotin olaman degan o'yim bor, uch nimcha sarg'ichgina, mehmonlarga damlab beradigan yaxshi choyim bor. Alpomish aydi:

-Balli senga, Tovkani olib beraman. Qirq qo'yni ham tapsha, olatoyini ham, moyini ham, choyni ham tashla. Senga olib beraman. Unda Kaykubod: -Qulluq, dedi. Suyunganidan vaqgi xush bo'lib, shoulog'i, deb ikki qo'y tashladi, vaqgi xushligiga ikki qo'y tashladi. Quymoq uyning qo'yi, deb yana ikki qo'y tashladi. Shunda Kaykubod vaqgi xush bo'lib, dimog'i choq bo'lib, quvonganidan juragi jorilg'iday bo'lib, bir so'z deb ketayotibdi, qo'yni haydab:

Kayqubod xotinli bo'ldi, Xudoyim,
To'shlari cho'llarda bo'ldi muloyim.
Hay-huy yallasi, kirib ketar kallasi,
Kayqubod xotinli bo'ldi, olloyim.
Tovba desam, to'kilgaydi gunoyim.
Endi oldim Toychixonning qizini,
Jarqillatib yulduzdayin ko'zini.
Endi oldim Oy Tovkaning o'zini.

Yuragi ishib-yuragi shishib
Yezna-pochcha
Jumur-qorinning bir bo'lagi
Sarg'ichgina-sarg'ishgina
Aydi-aytdi
Vaqgi xush-vaqti xush
Juragi-yuragi
Jorilg'iday-yorilgiday

Yuqorida keltirilgan misollarda esa asarda keltirilgan so'zlarning bugungi kunda shevalarimizda uchrashini ko'ramiz. Asardagi yezna-yezda, jumur, juragi, jorilg'iday kabi so'zlar Qoraqalpoq hududida yashovchi xalq tilida, ya'ni, Qipchoq dialektida mavjud so'zlardir. Bunday misollardan namunalarni juda ko'plab keltirishimiz mumkin.

Jallodlar Boysarining haligi so'zini arza qib, ikki mirg'azabdan jo'natdi. Mirg'azablar arzani op kep, Qalmoqshohga tutdi. Qalmoqshoh bu arzani o'qib ko'rib aytdi. Juda dimog'i ham chog' bo'lib ketdi: Meni himoyat tutib kelgan odam bo'lsa, qatorda nori ham o'ziniki, nor ustida zar ham o'ziniki, barcha davlat-moli ham o'ziniki, bizga dardkor emas, Barchin qizi ham o'ziniki. Yayloviga Chilbirning



cho'lini berdim, suvloviga Oynalining ko'lini berdim. Yetti yilgacha moli bezakot, betergov yura bersin. Har kim musofir boylarga taaddi qilsa boshi-o'limda, moli-talovda, o'z ixtiyorida yura bersin,-dedi.

Arza qib-ariza qilib,
Ob kep-olib kelib.

Kampirning yalang'och bo'p qolganini ko'rib, Boybicha uyiga borib, yangi kiyimlar olib kelib, kampirning ustidagi kuchuk yirtgan kiyimlarni chechib olib yangi kiyim kiydirib, Boybicha kuchuklarini urib, kampirning dimog'ini chog' qilib, uyiga ergashtirib bordi. Barchin qirqin kanizaklari bilan o'tirib edi, bu kampirni ko'rib, qanday bo'lsa ham, musofirchilik yurtda, kampirni izzat qilib, o'rnidan turib, tazim qilib o'tirdi. Barchinni kampir ko'rib: "biznin Qorajonga lozim qiz ekan",-deb o'tirdi.

bo'p qolgani-bo'lib qolgani
chechib-yechib kabi misollarda ham aynan hozirgi qipchoq shevasi so'zlari bilan bir xil.

Mehmonlarni bular o'tkizib qo'lini yuvdirib dastarxon soldi. Uch tovoqqa oshni suzib, ob kep mehmonlarning oldiga qo'ydi. Bir tovoq to'rtovara bo'p qoldi.

ob kep-olib kelib
bo'p qoldi-bo'lib qoldi
...uchtovoq oshdan yigirma guruch kamib qoldi.
kamib qoldi-kamayib qoldi

Bu so'zni eshitib Qorajon: - esa o'zbaki rasm qilayik, -deb telpakni tashlab yangi liboslar kiyib, boshiga salla o'rab, chotayotir, sira shidam bo'lmaydi, g'arbayib ketayotir, sira o'zbek xohlaydigan bo'lmayotir. Burin-so'ng salla o'ragani yo'q, shidamlab o'ramoqqa o'ng'ayi kelmoyotir.

o'zbaki-o'zbeki
rasm qilayik-rasm qilaylik,
shidam bo'lmaydi-tugamaydi
g'arbayib ketayotir-kattayib ketmoqda.

Arzim eshit o'zbek qizi,
Aqlimdolar jodu ko'zi.
Seni olarim bordir,
Sening Boysari otangni.
Bul dorga ilarim bordir,
Sening ham tuqqan enangning
Boshini yularim bordir.



To'qson alpni quda qilib ergashtirib kelarim bordir.
Men seni zo'rlikman olarim bordir,
Do'lani qo'yningga kirarim bordir,
Novvosday bo'p seni surarim border

- aqlimdolar-aqlimni olar
seni olarim bordir-senga uylangim bor
ilarim bordir-ilgim bor
enang-onang
yularim bor-yulgim bor
kelarim bor-kelgim bor
zo'rlikman-zo'rlik bilan
do'lani qo'yningga-ko'nglingga kirgim bor.

Ana shunda enasi Barchinoyni ham jo'natmoqchi bo'lib, Barchinoy uchun to'riq yo'rg'a otini tabladan olib kelib, tilla yuganlarini boshiga solib, juda choqlab, otning jilovidan ushlab olib kelib berdi. "Tabladan"-ot bog'lanadigan joy ya'ni otxona...endi Boysari semiz qo'ylarni so'yib, o'n ming uyli qo'ng'iroq elining odamman deganini jiyib, qorsonga sop, oldiga opkep qo'ydi. Ushbu parchada "jiyib"-yig'ib, "opkep qo'ydi"-olib kelib qo'ydi so'zlari ham haligacha shu shaklda shevalarimizda ishlatiladi.

Qorajon qildi ziyofatdi, yugurib qilib yotir xizmatdi. Erta-mertan tong otdi, kun choshga haddiga yetdi. Alpomish turib aytdi:- Qorajon, bizning bunda kelib yotganimizni ne bilsin, sen Boysarinika tomom borib Kelsang, bir xabarini bilib Kelsang, qizini bizga beradigandan bo'lsa, jovchi bo'lib Kelsang, qanday bo'lsa mening kelganimni bir bildirib Kelsang. Qorajon: - men qanday ot mininb borayin?- dedi. -mayling, qanday ot mininb borsang,- dedi.

Ziyofatdi-ziyofatni
Qilib yotir- qilayapti
Xizmatdi-xizmatni
Erta-mertan- bugun-erta
Kun choshga haddiga yetdi-chosh vaqti bo'ldi
Bunda-bu yerga
Jovchi-xabarchi
Minib borayin-minib boray.
Mayling-xohishing



Xulosa qilib shuni aytadigan bo'lsak, har bir inson agar o'zbek degan xalqni yuksaltirgan, uni dunyoga tanitgan axloqiy xususiyatlar nimalar ekanligini tuymoqchi, bobolaringizni olamga mashhur etgan ma'naviy fazilatlarining ildizi qayerdanligini bilmoqchi, ajdodlarning or-nomus, so'zga egalik, bag'rikenglik va kechirimlilik singari jihatlaridan o'rnak olmoqchi bo'lsa, dostonni diqqat bilan o'qib va asarni tushunib yetishga harakat qilishi lozim. Yana shuni qo'shimcha qilishimiz joiz-ki, dostondagi qahramonlar o'zlarining go'zal xislatlari bilan bugungi kun yoshlariga namuna bo'la oladigan timsollardir. "Alpomish" — mumtoz barkamol eposlarning biridir. Unda qo'llangan har bir detallar o'z mazmun-mohiyatiga egadir. Bizga qoldirilgan shunday katta merosni munosib avlod bo'laroq, o'qib o'rganib, tushunib anglab yetishimiz milliy madaniyatimizga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbat va ehtiromimiz namunasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yuqorida keltirgan misollardan ham bilishimiz mumkin-ki, o'zbek tili ya'ni qadimgi turkiy til juda boy va go'zal til bo'lib, hozirgacha o'z tarovati bilan, nafaqat turkiy xalqlarni, balki butun insoniyatni ilm nurlari bilan boyitib kelmoqda. Shunday ulkan ummondan bahramand bo'lishimizda, albatta, til tariximizni, tilshunoslikdagi dialektologiyaga oid bilimlarni bilishimiz muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asari. "Ma'naviyat" nashriyoti. Toshkent-2008.
2. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. - Toshkent:, "Nodirbegim" nashriyoti. 2008
3. Mirzayev T., „Alpomish“ dostonining o'zbek variantlari, T., 1968;
4. "Alpomish" O'zbek xalq qahramonlik dostoni. "Sharq" nashriyot matbaa kontserni bosh tahririyati. Toshkent-1998.